



13.00.00	13.00.06	01.00.00
13.00.01	13.00.07	02.00.00
13.00.02	13.00.08	03.00.00
13.00.03	13.00.09	09.00.00
13.00.04	07.00.00	10.00.00
13.00.05	19.00.00	11.00.00

№4/2025

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogik, psixometodologik va tabiiy fanlarga
ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 120 sahifa,
15-aprel, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Qirg'izboyev Abdug'afur Karimjonovich
Tarix fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna
Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Umarova H.O'. – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Somurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'icha falsafa doktori (PhD)
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent davlat texnika universiteti, G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti Toshkent temir yo'l muhandislari instituti.

EDITOR-IN-CHIEF:

Qirg'izboyev Abdug'affor Karimjonovich
Doctor of Historical Sciences, Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna
Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician
Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician
Umarova H.O'. – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan
Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor
Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)
Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)
Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)
Woogyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)
Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)
Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor
Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)
Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor
Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor
Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service
Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)
Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics
Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology
Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region
Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali Oliy attestatsiya komissiyasining 26-08-2024 yildagi №11-05-4381/01-Kengash tavsiyasiga ko’ra, pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning tadqiqot ishlari yuzasidan dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro’yxatiga kiritilgan.

Asos: OAK Pedagogik texnologiyalar va psixologik tadqiqotlar bo’yicha ekspert kengashi tavsiyasi (29-10-2024-y.; №10); OAK Tartib-qoida komissiyasi qarori (30-10-2024-y., №10/24); OAK Rayosatining qarori (31-10-2024-y., №363/5).

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.06.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan №C-5669245
reyestr raqami tartibi bo’yicha
ro’yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310

MUNDARIJA

XXI asr tibbiyot atamashunosligi va unga ta'rif.....	12
Achilov Muzaffar Norquliyevich	
“4K” modeliga asoslangan ta’limda interaktiv metodlar va texnologiyalardan foydalanish usullari	15
Boltayeva Hulkar Mardonqul qizi	
Oliy ta’lim muassasalari kafedrası faoliyati samaradorligini oshirishda pedagogik risklarni boshqarish mexanizmi.....	18
Djalalov Baxromjan Begmurzayevich	
Kichik maktab yoshidagi o’quvchilarda liderlik sifatlarini shakllantirishning pedagogik aspektlari.....	24
Djumayeva Dildora Isroilovna	
Urma zarbli cholg’ular turlari va ularda ijro etish usullari	27
Egamkulov Oybek Altmishevich	
Umuminsoniy va diniy qadriyatlarni yoshlarimiz ongiga singdirishda dialektikaning roli	31
Ergasheva Guzal Maxkambayevna	
Bo’lg’usi tarbiyachilarda ijtimoiy intellektni shakllantirish zamon talabi.....	34
Ermatova Gulnoz Pirimovna	
Boshlang’ich ta’lim tarbiya fanida o’yin texnologilardan foydalanish metodikasi	37
Farsaxonova Dilafuz Rizaxonovna	
Boshlang’ich sinf o’quvchilarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonining yo’nalishlari va usullari ...	41
Kulboyeva Dilnoza Abdug’ofurovna	
Kurash sport turiga qiziquvchi ayollarning motivatsiya va o’z-o’zini anglash darajasi.....	44
Mamaraimova Ra’no Usmanovna	
The Teaching of Oral Production in the FFL Classroom: Linguistic and Psychological Difficulties	48
Narzulloyeva Dilfuza Bahridin qizi	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini teatrlashtirilgan faoliyat asosida rivojlantirish	54
Nurmatova Iroda Toxtasinovna	
Maktabgacha ta’lim yo’nalishi talabalarida kasbiy kompetentlikni shakllantirishda pedagogik amaliyotning o’rni.....	56
Shamiyeva Manzura Fayzullayevna	
Globalashuv jarayonida o’quvchilarning aksiologik kompetensiyalarini shakllantirish.....	59
Siddikov Baxtiyor Saidkulovich	
4-sinf o’quvchilariga maqollar ma’nosini tushuntirish usullari	63
Suvonova Shohida Murodullo qizi	
Kasbiy rivojlanish soatlarining pedagogik va psixologik asoslari.....	69
Temirova Rushana Ravshan qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy-hissiy ko’nikmalarni shakllantirish mazmuni	73
Teshabayeva Zamira Sobirovna, Abdulatipova Mehrbon Qahramon qizi	
Boshlang’ich sinf tabiiy fan darslarida STEAM yondashuvi va xalqaro baholash dasturlari.....	76
Usmonova Zulfiya Iloxomovna	
Bo’lajak o’qituvchilarda konfliktologik kompetentlikning shaxs sifatlariga aloqadorligi	79
Muxammadiyeva Xadicha Karomatovna	
Русская документальная проза как отражение прошлого и настоящего общества	82
Дустова Ирода Шукрулло кизи	
Размышления о возникновении человеческих эмоций	86
Умарова Навбахор Шокировна, Зарипова Нигинабону Фахритдиновна	
Проблемы регулирования терминов в языкознании.....	89
Курбанова Гузаль Абдурахимовна	



Педагогические основы формирования интереса дошкольников к изучению иностранного языка в игровой среде.....	93
Курбанова Назира Низомиддиновна	
Механика fanining rivojlanish tarixi.....	97
Esanov Nuriddin Qurbonovich	
Эффективность использования личностно-ориентированной технологии обучения в учебном процессе.....	100
Намозова Манзура Муродовна	
О'spirinlik davridagi depressiv holatlarni psixodiagnostika va psixokorreksiya qilish usullari	104
Bannayev Maxamadin Sotvoldiyevich	
Talabalarda axborot madaniyatini shakllantirish metodikasi.....	109
Radjabova Gulnoza Bahromovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining madaniy xilma-xillikni inobatga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etish usullari	113
Saffarova Mohidil Axmadovna	
Adabiy til va shevalar o'rtasidagi leksik tafovutlar: kelib chiqish sabablari va rivojlanish xususiyatlari	116
Qurbonova Asal O'tkirovna	

MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARNING IJODIY QOBILİYATLARINI TEATRLASHTIRILGAN FAOLIYAT ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

Nurmatova Iroda Toxtasinovna

Nizomiy nomidagi TDPU

“Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrası dotsenti (PhD)

Annotatsiya: Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilar ijodiy qobiliyatlarini teatrlashtirilgan faoliyat asosida rivojlantirish maktabgacha pedagogikaning dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Teatrlashtirilgan faoliyatlar jarayonida bolaning ijodkorligi va uning faolligi har tomonlama rivojlanadi. Ushbu maqolada musiqiy faoliyatlarni tashkil etish uslubi va shakllari haqida fikr-mulohaza yuritiladi.

Kalit so'zlar: tarbiyachi, tarbiyalanuvchi, usul, vosita, musiqiy teatr, musiqiy cholg'u asboblari, ritmika.

Abstract: Theatrical activity with pupils of preschool educational organizations is one of the urgent problems of preschool pedagogy. During theatrical activity, the child's creativity and activity are comprehensively developed. This article examines the methods and forms of organizing theatrical activity.

Key words: educator, student, method, tool, musical theater, musical instruments, rhythm.

Аннотация: Театрализованная деятельность с воспитанниками дошкольных образовательных организаций является одной из актуальных проблем дошкольной педагогики. В ходе театрализованной деятельности всесторонне развивается творчество ребенка, его активность. В данной статье рассматриваются методы и формы организации театральной деятельности.

Ключевые слова: педагог, дошкольник, метод, музыкальный театр, музыкальные инструменты, ритмика.

KIRISH

Teatr – dunyoni obrazlar orqali idrok etishga asoslangan, hayotni badiiy aks ettirishning eng ko'rgazmali shakllaridan biridir. Teatr mazmuni ifodalashning o'ziga xos vositasi bo'lib, aktyorlar o'rtasidagi o'yin munosabatlari jarayonida yuzaga keladigan sahna ko'rinishidir. Biroq bolalarning boshlang'ich musiqiy ta'limi sohasida musiqiy va teatr faoliyati eng kam rivojlangan yo'nalish bo'lib, uning samaradorligini ko'plab psixologik va pedagogik tadqiqotlar tasdiqlaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish muammosi zamonaviy pedagog va psixologlarning asarlarida o'rganilgan. Ushbu muammo bilan shug'ullangan mualliflar orasida L.S. Vigotskiy, M. Vollax, N. Kogan, A. Strauning, G. Bush, Dj. Smit, B.P. Nikitin, S.L. Novosyolova, Ye.V. Zvorigina, N.F. Komarova, B.N. Zaika va boshqalarni aytish mumkin. Ushbu tadqiqotchilarning asarlarida maktabgacha yoshdagi bolalarning musiqiy va teatr faoliyatida ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish shartlari ishlab chiqilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi o'quv jarayoniga teatrlashtirilgan faoliyatni joriy etish orqali biz bolalar hayotini mazmunli va qiziqarli qilamiz, uni ijodkorlik quvonchi va yorqin taassurotlar bilan to'ldiramiz. Teatr san'ati bolalarni go'zallik dunyosi bilan tanishtiradi, his-tuyg'ular doirasini, o'zlarini boshqaning o'miga qo'yish, u bilan quvonish va tashvishlanish qobiliyatini rivojlantiradi. Teatr tufayli bola dunyoni nafaqat aqli, balki qalbi bilan ham o'rganadi, his-tuyg'ular yordamida atrofdagi dunyoga o'z munosabatini bildiradi.

Teatr o'yinlari jarayonida bolalarni yaxlit tarbiyalash amalga oshiriladi. Ular ifodali o'qishni, harakatning plastikligini, qo'shiq aytishni, cholg'u asboblarni chalishni o'rganadilar. Har bir bolaga o'zini shaxs sifatida ochib berishga, o'z imkoniyati va qobiliyatidan foydalanishga yordam beradigan ijodiy muhit yaratiladi. Teatrlashtirish elementlaridan ko'ngilochar tadbirlar va bayramlarda ham, kichik guruhdan boshlab foydalanish mumkin.



TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalariga ko'ra, bolalarni musiqiy tarbiyalash jarayonida bola tomonidan bajariladigan mashqlar asta-sekin murakkablashadi va shu bilan birga uning ijodiy sohada o'zini o'zi anglashi ortadi. Musiqiy teatrlashtirilgan faoliyatlarda quyidagi vazifalar belgilanadi: musiqiy teatr faoliyatiga kognitiv qiziqishni rivojlantirish; bolalar va ota-onalarning ijodiy faoliyati uchun sharoit yaratish; bolalarni teatr turlari bilan izchil tanishtirish; bolalarning estetik qobiliyatlarini rivojlantirish; artistik ko'nikmalarni takomillashtirish; nutq va intonatsiya ustida ishlash; muloqot ko'nikmalarini va (raqslarda, o'yinlarda) jamoaviy ijodkorlikni o'rgatish; bolalarda voqealarni jonli tasavvur qilish, samimiy hamdardlik, birga qayg'urish qobiliyatini uyg'otish.

Teatrlashtirilgan faoliyat bolaning ijodiga katta imkoniyat yaratadi, unga harakatlarning u yoki bu ovozini ixtiro qilishga, ijro etish uchun musiqa asboblari, qahramonining obrazini o'zi tanlashga imkon beradi. Raqs ijodkorligi bolaning intellektual sohasini rivojlantirish uchun ajoyib zamin bo'ladi. Cholg'u asboblari, qo'shiq aytish, raqs va teatr faoliyatida improvizatsiya tashabbusini qo'llab-quvvatlash bolalarda musiqa mashg'ulotlariga "jonli" qiziqishni rivojlantirishga, ularni zerikarli vazifadan qiziqarli tomoshaga aylantirishga imkon beradi. Teatrlashtirilgan faoliyat bolaning aqliy va jismoniy rivojlanishiga hissa qo'shadi, teatr o'yinlari doirasida u yashaydigan jamiyatning me'yorlari, qoidalari va urf-odatlarini to'g'risida bilib olishga imkon beradi. Musiqiy teatrlashtirilgan faoliyat maktabgacha yoshdagi bolalar uchun har bir adabiy asar yoki ertak har doim axloqiy yo'nalishga (do'stlik, mehr-oqibat, halollik, jasorat va boshqalar) ega bo'lganligi sababli, ijtimoiy xulq-atvor ko'nikmalarining tajribasini shakllantirishga imkon beradi. Musiqiy teatrlashtirilgan faoliyat bolaning his-tuyg'ulari, chuqur tajribalari va kashfiyotlarini rivojlantirish manbai bo'lib, uni ma'naviy qadriyatlar bilan tanishtiradi, bolalar nutqini rivojlantiradi.

Teatrlashtirilgan faoliyatda ijodiy qobiliyatlarni izchil va bosqichma-bosqich rivojlantirish muammosini hal qilishda quyidagilar tavsiya etiladi: kichik guruhda bolalarda eng oddiy majoziy va ifodali ko'nikmalarni shakllantirish (xususan, hayvonlarning xarakterli harakatlarini taqlid qilish qobiliyati); o'rta guruhda badiiy va majoziy vositalarning elementlarini (intonatsiya, mimika, pantomima) o'rgatish; katta guruhda badiiy va obrazli ijro mahoratini oshirish; tayyorgarlik guruhida badiiy obrazni uzatishda ijodiy mustaqillikni, nutq va pantomimik harakatlarning ifodaliligini rivojlantirish. Bolalar ijodiy qobiliyatini rivojlantirish quyidagi bosqichlarda ajratib ko'rsatiladi: birinchi bosqichda bolalar harakat usullariga faol taqlid qiladigan vazifa qo'yiladi; ikkinchi bosqichning vazifasi – bolalarda faqat bilvosita rag'batlantiriladigan harakat usullarini shakllantirish, ijodkorlikning eng oddiy namunalari yaratish, tanish materialga o'zgartirishlar kiritish; uchinchi bosqichda bolalardan namunalardan foydalanmasdan mustaqil harakat qilishni talab qiladigan vazifa qo'yiladi.


XULOSA

Xulosa qilib shuni ta'kidlash mumkinki, teatrlashtirilgan faoliyatlarning tarbiyaviy imkoniyatlari keng. Unda ishtirok etib, bolalar atrofdagi dunyo bilan turli xil obrazlar, ranglar, tovushlar orqali tanishadilar va mohirona berilgan savollar ularni o'ylashga, tahlil qilishga, xulosa chiqarishga va umumlashtirishga majbur qiladi. Nutqni takomillashtirish aqliy rivojlanish bilan chambarchas bog'liq.

Qahramonlar replikalarining ifodaliligi, o'z bayonotlari ustida ishlash jarayonida bolaning so'z boyligi sezilmas tarzda faollashadi, nutqining tovush madaniyati va intonatsion tuzilishi yaxshilanadi. Ijro etilgan rol, talaffuz qilingan replikalar bolani aniq, ravshan, tushunarli tarzda gapirishga majbur qiladi. Unda dialog nutqi, uning grammatik tuzilishi yaxshilanadi. Aytish mumkinki, teatrlashtirilgan faoliyat bolaning his-tuyg'ulari, hayajonlari va kashfiyotlarini rivojlantirish manbai bo'lib, uni ma'naviy qadriyatlar bilan tanishtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Nurmatova I.T. Theatrical activity as a means of developing the creative abilities of younger preschoolers. *Modern Problems of Science and Education*, 15-12-2022, pp. 136–140. International Scientific and Current Research Conferences. Virginia, USA.
2. Nurmatova I.T. Development of creative activity of older preschool children by means of theaterized activity. *European International Journal of Pedagogics*. ISSN: 2751-000X, pp. 20–25. SJIF – 5.983. <https://www.eipublication.com>
3. Vygotsky L.S. Imagination and Creativity in Childhood. *Journal of Russian and East European Psychology*, 2004, Vol. 42(1), pp. 7–97. DOI:10.2753/RPO1061-040542017
4. Slade P. *Child Drama*. London: University of London Press, 1954.
5. Bodrova E., Leong D.J. *Tools of the Mind: The Vygotskian Approach to Early Childhood Education*. 2nd ed. Columbus, OH: Merrill/Prentice Hall, 2007.
6. Ismailova M., Tadjibayeva N. The role of theatrical play in the development of preschool children's imagination. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences*, 2021, Vol. 9(1), pp. 45–52.
7. Xolmurodova G.X. Maktabgacha yoshdagi bolalar ijodiy faoliyatining rivojlanishida sahnalashtirilgan o'yinlarning o'rni. *Ilmiy-amaliy pedagogik jurnal*, 2022, №4, 112–117-betlar.
8. Aliyeva S. Teatr va dramatik o'yinlar orqali bolalar ijodkorligini rivojlantirish. *O'zbekiston pedagogik jurnali*, 2023, №1, 98–103-betlar.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.